



**BACHADONDAN TASHQARI HOMILADORLIKNI ANIQLASHDA
UTTNING ROLI**

**Nishanova Yulduz Khatamovna
A'zamjonova Mavluda**

Annotatsiya: Bachadondan tashqari homiladorlik ginekologik amaliyotda uchraydigan eng muhim va xavfli patologik holatlardan biri hisoblanadi [1]. Ushbu holat homilaning bachadon bo'shlig'idan tashqarida joylashib rivojlanishi bilan tavsiflanadi va ko'pincha reproduktiv yoshdagi ayollarda kuzatiladi[1,2,3]. Xavf omillari qatoriga 35 yoshdan yuqori bo'lish, lozim anamnezida ko'p marotaba abortlarning mavjudligi, bachadon ichi kontratseptiv vositalaridan foydalanish hamda ayol organizmida jinsiy gormonlar — estrogen va progesteron yetishmovchiligi kabi holatlar kiradi. [3].

Bachadondan tashqari homiladorlikning klinik belgilari ko'pincha boshqa o'tkir ginekologik kasalliklarga o'xshash bo'lishi mumkin [4]. Shu sababli uni tuxumdon kistasining yorilishi, kista oyoqchasining buralishi, tuxumdon apopleksiyasi kabi patologik holatlardan differensial tashxislash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holatlarda aniq va tezkor tashxis qo'yish bemor hayotini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi[5]. Zamonaviy diagnostika usullari orasida ultratovush tekshiruv (UTT) alohida o'rin tutadi. Ayniqsa transvaginal ultratovush tekshiruv kichik chanoq a'zolarining aniq va batafsil tasvirini olish imkonini beradi. Ushbu usul yordamida bachadon bo'shlig'ida gestatsion qopchaning mavjudligi yoki yo'qligi, bachadon naylari sohada patologik tuzilmalar hamda qorin bo'shlig'ida erkin suyuklik aniqlanishi mumkin[6]. Shuningdek, bu usul bachadondan tashqari homiladorlikni erta bosqichlarda aniqlash, asoratlarning oldini olish va davolash taktikasini to'g'ri



tanlashda katta diagno stik ahamiyatga ega[7]. Shu bois transvaginal ultratovush tekshiruvi bachadondan tashqari homiladorlikni erta tashxislashda ishonchli, xavfsiz va noinvaziv diagnostik usullardan biri hisoblanadi[8].

Kalit so‘zlar. Sonografiya, HGCh gematoperitoneum, differensial diagnostika.

Ishning maqsadi:Bachadondan tashqari homiladorlikni erta aniqlashda ultratovush usulining diagnostik ahamiyatini o‘rganish.

Material va metodlar:Mazkur tadqiqot retrospektiv kuzatuv usulida olib borildi. Tadqiqot ginekologiya bo‘limida bachadondan tashqari homiladorlik gumoni bilan murojaat qilgan 60 nafar ayollar orasida o‘tkazildi. Kuzatuv davri davomida bemorlarning klinik, laborator va instrumental ko‘rsatkichlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotga reproduktiv yoshdagi (18-39yosh) ayollar jalb qilindi. Ular quyidagi belgilar asosida tanlab olindi:hayz kechikishi(3 kundan 10 kungacha) qorin pastki qismida og‘riq 20 nafar (33,3%) ayolda. Qindan qonli ajralma ajralishi 25 nafar (25%) ayoldan olindi.Ayollarning anamnezida 15 nafari (41,7%) 6-8 xaftaligacha bola tushishi va yallig‘lanish kasalliklari tashxis qo‘yildi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida bachadondan tashqari homiladorlikni erta aniqlashda ultratovush tekshiruvi UTT va XGCh diagnostik darajasi o‘rganildi. Tadqiqotga ja‘mi 60 nafar bemor jalb qilindi.

Barcha bemorlarda transvaginal va UTT o‘tkazilib, qonda XGCh darajasi aniqlanib, 24 soat davomida dinamik kuzatuv olib borildi.

UTT natijalariga ko‘ra:15 nafar bemorda (25%) bachadon bo‘shlig‘ida homila tuxumi aniqlanmadi,7 nafarida (11,7%) o‘n bachadon nayida 5 nafarida

(8,3%) tuxumdon endometroid kistasi 15 tasida 3 sm dan katta folekulyar kista 6 nafarida (10%) tuxumdon apopleksiya qayd etildi.

12 nafar bemorda (20%) bachadon naylari sohasida patologik massa aniqlandi (homila tuxumi) 5 nafar bemorda (8,3) bachadon naylari va bachadon bo'shlig'ida boshqa kichik tos bo'shliq organlarida homila tuxumi aniqlanmadi. 10 nafar bemorda (16,7%) qorin bo'shlig'ida erkin suyuqlik mavjudligi aniqlandi.

XGCh natijalari shuni ko'rsatdiki Homiladorlikning ilk bosqichlarida (dastlabki 8-10 haftagacha). (1 jadval)

Bemorlarni XGCh darajasi bo'yicha darajasi

Homiladorlik muddati (xaftalar)	XGCh miqdori
3-4 xafta	25-156
5-6 xafta	100-4,800
7-9 xafta	1,100-31,500

Homiladorlikning 4-haftasi Bu davrda embrion hali juda kichik bo'lgani uchun uni bevosita ko'rish va KTRni o'lchash imkonsiz.

UTT tasviri Bachadon ichida diametri 2–3 mm bo'lgan kichik gipoexogen hosila — homila tuxumi ko'rinishi mumkin.

KTR ko'rsatkichi: Aniqlanmaydi (0 mm).


XGCh bilan bog'liqlik: XGCh miqdori 1000–1500 mIU/ml dan oshganda, homila tuxumini bachadon ichida vizuallizatsiya qilish mumkin bo'ladi.

Homiladorlikning 6-haftasi Bu davr embrion rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, birinchi marta morfologik o'lchovlarni o'tkazish



imkonini beradi.UTT Homila tuxumi ichida embrion va sariqlik qopchig'i (Jeltochniy meshok) aniq ko'rinadi. KTR O'rtacha 3 mm dan 7 mm gacha bo'ladi.

Yurak urishi: 6-haftaning oxiriga kelib, embrionning yurak qisqarishlarini (YUK) qayd etish mumkin (me'yorda 110–130 urish/min).



1-rasm. Bemor N 42 yosh bachadondan tashqari homiladorlik transvaginal chap bachadondan tashqari ultratovush tekshiruvda aniqlandi.

Xulosa Bizning ilmiy ishimizda bachadondan tashqari homiladorlikni aniqlashda utt ning sezgirligi o'ziga xosligi — bu hayot uchun xavfli holat bo'lib, uni o'z vaqtida diagnostika qilishda UTT hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tekshiruvning asosiy vazifasi homila tuxumining bachadon bo'shlig'idan tashqarida joylashganini tasdiqlash yoki bachadon nayidan homila yo'qligini isbotlashdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://med360.uz/kasalliklar/bachadondan-tashqari-homiladorlik/>.
2. <https://www.apollohospitals.com/uz/diseases-and-conditions/understanding-ectopic-pregnancy>.
3. https://www.researchgate.net/publication/399638704_BACHADONDAN_TASHQARI_HOMILADORLIK_MUAMMOSIGA_ZAMONAVIY_YONDASHUV.
4. <https://devos.uz/article.php?id=3568>.
5. <https://devos.uz/article.php?id=55>.